



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 23-yanvar, № 17 (8640)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI TAKLIFLAR KO'RIB CHIQLDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-yanvar kuni sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida aholi salomatligini ta'minlash, tibbiyot sifatini oshirish bo'yicha ko'plab vazifalar belgilangan. Bu islohotlarni jadallashtirish va hayotga samarali tatbiq etish maqsadida xalqaro ekspertlar ishtirokida takliflar ishlab chiqildi.

Unga ko'ra Sog'liqni saqlash vazirligi tuzilmasida davlat muassasasi shaklida "Sog'liqni saqlash loyihalari markazi" loyiha ofisini tashkil qilish taklif etilmoqda. U davlat tibbiy sug'urtasi tizimini hamda davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalari paketini to'liq joriy etish, tibbiy xizmatlar sifati va xavfsizligi ustidan nazorat tizimini kuchaytirish, kadrlar salohiyatini oshirish, tibbiy ta'lim tizimi va ilm-fan sohasini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish kabi yo'nalishlarga mas'ul etib belgilanadi. Shuningdek, bu markaz raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini jadallashtirish, xususiy sektorni kengaytirish, davlat xaridlari shaffofligini oshirish, farmatsevtika sohasini isloh qilishga ko'maklashadi.

Loyiha ofisi faoliyatiga ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining tajribali mutaxassislari, shuningdek, xorijiy ekspert va maslahatchilar shartnoma asosida jalb qilinadi.

Sog'liqni saqlash sohasida belgilangan islohotlar yetuk kadrlar salohiyatini talab etadi. Shu bois bu borada bir qancha chora-tadbirlar ko'zda tutilmoqda.

Jumladan, Toshkent tibbiyot akademiyasining ta'lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tkaziladi. Unda jamoat salomatligi, profilaktik tibbiyot, jismoniy faollik ixtisosliklari bo'yicha magistrlik yo'nalishlari ochiladi. Tibbiyot yo'nalishidagi talabalar bilimni xalqaro tan olingan tizim asosida, ikki bosqichda davlat imtihonlari orqali baholash yo'lga qo'yiladi.

Kelgusi o'quv yilidan boshlab, hududlardagi ehtiyojdan kelib chiqib tibbiyot oliygohlarining 200 nafar bitiruvchisi magistratura va klinik ordinatura dasturlari asosida yetakchi xorijiy ta'lim muassasalarida o'qitiladi.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan xirurgiya, kardiologiya, endokrinologiya, dermatovenerologiya va kosmetologiya markazlari, Bolalar milliy tibbiyot markazi hamda Milliy tibbiyot markazi xalqaro akkreditatsiyadan o'tkaziladi.

Joriy yilda amaldagi 40 ta sanitar qoida va normalari qayta ko'rib chiqilib, xalqaro standartlarga muvofiq lashtiriladi. Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma'qullab, mazkur ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlash yuzasidan topshiriq berdi.

## O'ZBEKISTON VA XITOIY O'RTASIDAGI HAMKORLIK RIVOJLANIB, YANGI SUR'AT KASB ETADI

"Sinxua" axborot agentligi, "Jenmin Jibao", "Global Times", "China Daily" gazetlari, "Beijing Review", "Kitay", "Diplomat Magazine" va "Lookwe" jurnallari, "CCTV" va "CGTN" telekanallari singari Xitoyning yetakchi ommaviy axborot vositalarida O'zbekiston — Xitoy munosabatlari, yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlar, mamlakatimizning zamonaviy taraqqiyotiga bag'ishlangan o'ndan ortiq tahliliy maqola, intervyu va reportajlar e'lon qilindi.

### Dunyo nigohi

Bundan tashqari, "Lookwe" va "Psearcher" jurnallarining O'zbekiston siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotining asosiy voqealariga bag'ishlangan maxsus soni xitoy va ingliz tillarida bosilib chiqdi.

Xitoyning ingliz tilida chop etiladigan nufuzli "China Daily" gazetasida "O'zbekiston bilan mustahkam aloqalar taraqqiyotiga hissa qo'shmoqda" sarlavhali maqola e'lon qilindi.

Nashrda xabar berilganidek, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin taklifiga binoan seshanba kuni uch kunlik tashrif bilan Xitoyga boradi.

Xitoy bosma nashrida, shuningdek, bu O'zbekiston rahbarining o'tgan yilning oktabr oyida Pekinda bo'lib o'tgan "Bir makon, bir yo'l" uchinchi xalqaro forumidagi ishtiroki hamda 2023-yil may oyida ushbu mamlakatga davlat tashrifidan keyin sakkiz oy ichidagi uchinchi tashrifi



bo'lishi ta'kidlangan.

"Bo'lajak davlat tashrifi O'zbekiston — Xitoy munosabatlarning yuksak darajasini hamda ikki mamlakat yetakchilari o'rtasidagi chuqur do'stlikni to'liq namoyon etadi, — deb yozilgan "China Daily"da Xitoy

Tashqi ishlar vazirligi rasmiy vakili Mao Ninning bayonotiga tayanib. — Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashrifi doirasida madaniyat, ta'lim va mintaqaviy hamkorlik sohalaridagi aloqalarni chuqurlashtirish, har ikki davlat va xalqlarga yanada katta

foyda keltirishga qaratilgan qator tadbirlar o'tkaziladi".

Misring "Sada al-Balad" axborot agentligi "O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi har tomonlama strategik sheriklik yangi bosqichda" sarlavhali maqolani tarqatdi.

## SPORTDAGI NATIJALAR VA REJALAR BO'YICHA AXBOROT BERILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga sport sohasida erishilgan natijalar va xalqaro musobaqalarga ko'rilyotgan tayyorgarlik bo'yicha axborot berildi.

Mamlakatimizda sport ancha ommalashgan, yoshlar sportsevar. Davlatimiz rahbari g'oyasi bilan tashkil etilgan "Besh tashabbus olimpiadasi" jismoniy madaniyatni yanada keng yoyishga xizmat qilmoqda.

O'tgan yili mazkur olimpiada doirasidagi musobaqalarda 6 million 400 ming nafar yoshlar qamrab olindi. Sport infratuzilmasi yaxshi rivojlanmagan, olis va chekka hududlardagi mahallalarda 449 ta namunaviy sport maydonchasi barpo etildi.

Besh bosqichli ommaviy musobaqalarda qariyb 12 ming nafar iqtidorli yoshlar tanlab olinib, sport maktablariga yo'naltirildi. Sohadagi har bir maktab muayyan sport turlariga ixtisoslashtirilib, yangi inventar va anjomlar bilan ta'minlandi. Bularning natijasida milliy terma jamoalarga sportchi yetkazib berish ko'rsatkichi ham oshmoqda.

Professional sportchilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlash bo'yicha ham zarur choralar ko'rilmogda. Ayni kunlarda Janubiy Koreyada o'tayotgan o'smirlar o'rtasidagi IV qishki olimpiya o'yinlarida tog' chang'isi bo'yicha sportchilarimiz ishtirok etmoqda.

Ma'lumki, bu yil Parij shahrida to'rt yillikning eng nufuzli musobaqasi — yozgi Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari bo'lib o'tadi. Hozirga qadar atletlarimiz ularga mos ravishda 17 ta va 34 ta yo'llanmani qo'lga kiritgan. Sportchilarimizning yana yo'llanmalar olishi va musobaqaga puxta tayyorgarlik ko'rishi uchun barcha sharoit yaratilgan.

2025-yilda Toshkentda o'tkazilishi rejalashtirilgan yoshlar o'rtasida Osiyo va Parasiyo o'yinlariga ham tayyorgarlik ko'rilmogda. Olimpiya shaharchasi qurilishi jadal davom etmoqda.

Joriy yilda ijtimoiy dasturlar doirasida 42 ta sport inshooti qurish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. "Besh tashabbus olimpiadasi" qamrovini yanada kengaytirgan holda ishtirokchilar sonini 7 millionga yetkazish mo'ljallangan. Sport maktablarida qo'shimcha mingdan ortiq guruhlari ochish ko'zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari sport ta'limini rivojlantirish, sportchilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlashda ilg'or yondashuvlarni qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

O'ZA.

### Aks sado

## DO'STONA ALOQALARIMIZ YANADA KENGAYADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi arafasida mazkur mamlakatning dunyodagi eng katta auditoriyaga ega bo'lgan yetakchi nashri — "Jenmin Jibao" gazetasida davlatimiz rahbarining "O'zbekiston — Xitoy: ming yillar bardavom do'stlik va hamkorlik" sarlavhali maqolasi e'lon qilindi. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlari, strategik sheriklik va azaliy do'stlik haqida fikr bildirilgan bu maqola dunyo jamoatchiligi va ekspert doiralari katta qiziqish uyg'otdi.

Ayni vaqtda Xitoyda bo'lib turgan O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vaziri Ibrohim Abdurahmonov muxbirimizga maqola yuzasidan o'z fikrlarini bayon etib, agrar sohadagi hamkorligimiz istiqbollari haqida quyidagilarni so'zlab berdi.

— Prezidentimizning maqoladagi "har gal Xitoyga kelar ekanman, bu yerda amalga oshirilayotgan islohotlar va erishilgan muvaffaqiyatlarga, o'zining ko'p asrlik orzusi sari modernizatsiya yo'lidan dadil borayotgan xitoy xalqining bunyodkorlik kuchi, mehnatsevarligi va iste'dodiga chin dildan tahsin aytaman" degan fikrlari ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlari naqadar do'stona ruhga ega ekanligidan dalolat beradi.

Davlatimiz rahbarining 2024-yildagi birinchi rasmiy safari manzili Xitoy bo'lgani ham

bejiz emas. Binobarin, tarixiy rishtalarimiz asrlar osha jahon savdosining eng muhim yo'nalishi bo'lib kelgan Buyuk Ipak yo'lining vujudga kelish davriga borib taqaladi. Eng qadimgi hujjatli manbaalarda miloddan avvalgi 126-yilda Xan sulolasining ilk elchisi Chjan Syan Farg'ona vodiysidagi qadimiy Parkana (xit. Dovon) davlatiga tashrif qilgani xususida batafsil ma'lumotlar mavjud.

Xitoy shoyisi, qog'oz, chinnisi, choyi va boshqa mahsulotlari Samarqand, Buxoro kabi ho'na shaharlarimiz bozorlari orqali butun dunyoga tarqalgan. Farg'onadan

Xitoyga zotdor otlar, beda, uzum urug'i kabi ko'plab mahsulotlar bilan bir qatorda sharobchilik, bog'dorchilik texnologiyalari kirib borgan.

Prezidentimizning maqolasida ham shu jihatga e'tibor qaratilib, o'sha qadimiy davlatchilgimizda Xitoy elchilarining Parkana davlatiga tashrif davomida juda katta savdo-sotiq ishlari amalga oshirilgani va buning natijasida Xitoyning ko'plab mahsulotlari yurtimizga olib kelingani hamda Buyuk Ipak yo'li orqali butun dunyoga tarqalgani aytilib o'tilgan. Bu nafaqat savdo-sotiqda, balki ilm-fan, madaniyat va ma'rifatni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan, ayniqsa, matematika, astronomiya, tibbiyot sohasidagi o'zaro hamkorlik nafaqat xalqlarimizga katta foyda bergani, balki ikki davlatni doim bog'lab turgani ta'kidlangan. Bunda, ayniqsa, Abu Ali ibn Sino bobomizning tibbiyot sohasidagi olamshumul ishlari Xitoy tibbiyotining rivojlanishida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan.



### Energetika

## Xitoy kompaniyasi yirik loyihani amalga oshirmogda

Xitoyning "China Gezhouba Group Overseas Investment Co. LTD" kompaniyasi Nishon tumanining Guliston mahallasi hududidagi 1000 gektardan oshiq yalanglikda quvvati 500 MVt bo'lgan yirik quyosh fotoelektr stansiyasini barpo etmoqda.

E'tibori tomoni, mazkur loyihani amalga oshirish uchun talab qilinadigan 350,0 million AQSH dollari hisobidagi mablag'ni Chin yurti tadbirkorlari to'liq o'z hisobidan sarflaydi.

— Ayni paytga qadar quyosh fotoelektr stansiyasining 200 MVt quvvatli qismini qurib ishga tushirdik, — deydi korxonada bosh muhandisi Li Xuixiang. — Yana 300 MVt quvvatli qismida esa qurilish-montaj ishlari davom etmoqda. Joriy yil so'ngigacha qadar stansiyaning to'liq foydalanishiga topshirishni rejalashtirganmiz.

Mazkur quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushgach u hududdagi ochiq taqsimlash qurilmasi orqali markaziy tarmoqqa ulanib, elektr energiyasi yetkazib berishni boshlaydi. Bu faoliyat ortidan esa hududdagi 50 nafar kishining doimiy ish o'rniga ega bo'lishi ko'zda tutilgan.

Jahongir BOYMURODOV ("Xalq so'zi").

### Qonunchilik palatasi fraksiyalarida

## QIZG'IN FIKR ALMASHINUVI VA HUQUQIY IMKONIYATLAR ASOSI

Kecha siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi.

Ularda dastlab Prezidentimiz raisligida shu yil 18-yanvar kuni 2024-yilda investitsiya, eksport va sanoat sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilab berilgan yo'nalishlardan kelib chiqib, partiyalar va ularning parlamentdagi fraksiyalarida oldida turgan asosiy vazifalar muhokama qilindi. Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy hayotimizga oid bir qator muhim qonun loyihalari ham mufassal ko'rib chiqildi.

### Tadbirkorlik rivojida ulkan poydevor

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi

yig'ilishida ta'kidlanganidek, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi va aholi daromadlarining oshishi milliy iqtisodiyotning turli sohalariga jalb etilayotgan investitsiya

mablag'larining hajmi va tarkibiga bog'liq. Bugungi dolzarb vaziyatda hech bir mamlakat investitsiyalarsiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erisha olmasligi kundek ravshanlashmoqda.



## O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qirq to'qqizinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

2024-yilning 20-yanvar kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qirq to'qqizinchi yalpi majlisi o'z ishini davom ettirdi.

Unda Senat, Hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Videokonferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi.

Senatning qirq to'qqizinchi yalpi majlisida "O'zbekiston

Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi. Ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda sanitariya holatini va ekologik vaziyatni yaxshilash, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.



# O'ZBEKISTON VA XITOIY O'RTASIDAGI HAMKORLIK RIVOJLANIB, YANGI SUR'AT KASB ETADI

## DO'STONA ALOQALARIMIZ YANADA KENGAYADI

“Joriy yilning 23 — 25-yanvar kunlari Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat tashrifi bilan Xitoyda bo'ldi. Ushbu muhim davlat tashrifi, albatta, yuksak ahamiyatga ega bo'lib O'zbekiston — Xitoy hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirishga yangi sur'at bag'ishlaydi, — deyiladi maqolada. — 30 yildan ortiq vaqt davomida O'zbekiston va Xitoy o'zaro siyosiy ishonchni izchil mustahkamlab, tenglik, do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro qo'llab-quvvatlash va manfaatdorlik, hurmat va bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslangan ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirib kelmoqda.”

Maqolada ta'kidlanishicha, bugungi kunda kuzatilayotgan O'zbekiston — Xitoy munosabatlarining butun spektri rivojlanishining yuqori dinamikasi ushbu tendensiya yanada kuchayib, yangi sur'at kasb etishini ta'kidlash uchun aniq asoslar beradi. Ekspert fikriga ko'ra, davlatlar bu bilan o'xtab qolmasliklari kerak, ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlashda davom etish muhim.

“Oliy darajadagi bo'lajak muzokaralar ikki tomonlama hamkorlikni yanada yuksak bosqichga olib chiqishga, an'anaviy do'stlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalarini mustahkamlashga, shuningdek, ko'p qirrali strategik sheriklikning yangi istiqbolli yo'nalishlarini belgilashga xizmat qiladi”, deb yozilgan maqola intihosida.

Janubiy Koreyaning yetakchi “Diplomacy Journal” nashrida ham davlatimiz rahbarining Xitoyga bo'lg'usi tashrifiga bag'ishlangan maqola joylashtirildi.

Maqola muallif yozganidek, 30 yildan ortiq vaqt davomida O'zbekiston va Xitoy o'zaro siyosiy ishonchni muttasil mustahkamlab, tenglik, do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro qo'llab-quvvatlash va manfaatdorlik, hurmat hamda bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslangan ikki tomonlama munosabatlarni jadal rivojlantirib kelmoqda.

Nashrda ta'kidlanishicha, davlatlar rahbarlarining siyosiy irodasi va sa'y-harakatlari tufayli 2022-yil sentabrda ikki tomonlama munosabatlar yangi davrda har tomonlama strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Bu ularning qarashlari va geosiyosiy ustuvorliklari o'xshashligini, hamkorlikni yanada yuqori bosqichga olib chiqish va uni yangi mazmun bilan to'ldirishga o'zaro intilishlarini aks ettirdi.

Maqola xulosasida yozilganidek, oliy darajadagi bo'lajak uchrashuvlar, shubhasiz, ikki tomonlama

O'zbekiston — Xitoy hamkorligini yanada chuqurlashtiradi.

Maqolada ayni paytda dunyoda geosiyosiy keskinliklar va beqarorlik kuchayib borayotganiga qaramay, O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar o'z rivojlanishining eng yaxshi bosqichini boshidan kechirib, ikki tomonlama hamkorlikning namunal modelini namoyish etayotgani alohida aytilgan.

Saudiya elektron nashrida ta'kidlanidek, 2023-yil may oyida bo'lib o'tgan “Markaziy Osiyo —

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23 — 25-yanvar kunlari davlat tashrifi bilan Xitoyda bo'ldi.

Nashrlarda bugungi kunda O'zbekiston va Xitoyning xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar, global xavfsizlik va taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha pozitsiya va yondashuvlari o'xshashligi ta'kidlangan. Qayd etilganidek, Xitoy O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lini, mamlakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

“Bugungi kunda Xitoy O'zbekistonning eng yirik iqtisodiy va savdo sherigi hisoblanadi, — deya ta'kidlangan OAVda. — 2023-yilning yanvar — noyabr oylarida ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 12,2 milliard dollarni tashkil etib, avvalgi yilgi ko'rsatkichdan 34 foizga oshdi.”

2011-yildan buyon Hamkorlik bo'yicha O'zbekiston — Xitoy Hukumatlararo qo'mitasi doirasida tomonlar rivojlanish masalalari va amaliy sheriklikni yanada kengaytirish istiqbolini muhokama qilib kelmoqda.

Maqolalarda mintaqalarimizni asrlar davomida bog'lab turgan Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arb o'rtasida tinchlik, hamkorlik va ochiqlik ramzi bo'lib, o'zaro savdo, madaniy va ilmiy almashinuvga xizmat qilgani alohida urg'ulangan. Qadim zamonlardan beri mazkur yo'l orqali O'zbekiston va Xitoy o'zaro do'stlik va madaniy aloqalarni davom ettirib kelyapti.

“Aytish joizki, O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi sheriklik va hamkorlik sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarildi. Shu nuqtayi nazaridan, O'zbekiston yetakchisining Xitoyga bo'lajak davlat tashrifi ikki tomonlama hamkorlikdagi muvaffaqiyat va yutuqlarni mustahkamlaydi, shuningdek, ikki mamlakat xalqlari farovonligi yo'lida samarali hamkorlikning keyingi yangi istiqbolini ochishga xizmat qiladi”, deya qayd etilgan qo'shni davlatlar agentliklari maqolalarida.

“Dunyo” AA.

Maqolada Prezidentimiz gumanitar sohalarida Konfutsiy maktablarining ikki mamlakat madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatib, bugungi kunda ana shunday maktablar Toshkent va Samarqandda faoliyat olib borayotganini qayd etgan. Va hozirgi vaqtda kelib aloqalarimiz yangi bosqichga ko'tarilishiga urg'u berilib, 5 ta yo'nalishda muhim takliflar ilgari surilgan.

Ta'kidlanganidek, o'tgan yil yakuni bo'yicha ikki tomonlama tovar ayirboshlash 40 foizga oshdi, savdo hamkorlarimiz orasida Xitoy yetakchi o'rinni egallamoqda. Investitsiyalar Xitoy sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar soni esa uch barobar oshdi. Yuksak texnologiyalar, muqobil energetika, kimyo, mashinasozlik, metallurgiya, elektrotexnika, infratuzilmani modernizatsiya qilish va boshqa sohalarida bir qator yirik qo'shma investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Xitoylik hamkorlar ko'magida “yashil” energetikani rivojlantirish va 2030-yilga qadar 27 gigavatt tiklanuvchi energiya ishlab chiqaradigan quvvatlarni barpo etish sari muhim qadamlar tashlayapmiz.

Bulardan tashqari, maqolada keyingi yillarda “Bir makon, bir yo'l” dasturi doirasida global miqyosda katta qadamlar tashlanayotgani, Xitoy va O'zbekiston tomonidan olib borilayotgan siyosat hamohangligi, mamlakatimiz ham keyingi yillarda mana shunday do'stlik aloqalarini, mintaqadagi tinchlikni, barqarorlikni ta'minlashda tashabbuslar ko'rsatayotgani aytib o'tilgan.

Prezidentimizning Xitoy Xalq Respublikasiga tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarini yangi bosqichga ko'tarishi, shubhasiz. Xususan, biz tashrif arafasida bo'lib o'tgan ta'lim forumi davomida qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi universitetlar bilan sohani rivojlantirish bo'yicha uchrashuvlar o'tkazdik. Anjumanda ishtirok etgan universitet rektorlari Prezidentimiz maqolasiga alohida e'tibor qaratishdi va Xitoy — O'zbekiston o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka ishonchi yuksalayotganini aytib o'tishdi.

Forum doirasida biz, shuningdek, Xitoyning oxirgi yillarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligini

ta'minlash borasida qo'lga kiritgan yutuqlari bilan tanishdik. Amin bo'ldikki, hosildorlikni muttasil oshirishning eng muhim omili — ilm-fanga asoslangan yangi texnologiyalarni tatbiq qilish. Shunga ko'ra biz xitoylik hamkorlar bilan bu borada mutaxassislar tayyorlash bo'yicha kelishuvlarga erishdik.

Aytib o'tish lozimki, Xitoyda qishloq xo'jaligiga ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Yanlin iqtisodiy zonasida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Biz bu tajribalarni O'zbekistonga olib keladigan va to'g'ridan-to'g'ri fermerlarning qo'lga yetkazib beradigan yangi mexanizm joriy qilish ustida ish olib boryapmiz. Xususan, g'oz'a seleksiyasi, umuman, chigitdan olinadigan mahsulotlar assortimentini kengaytirish bo'yicha alohida loyihalar va qo'shma laboratoriyalar tuzish, qo'ziqorin yetishtirishning yangi texnologiyalarini O'zbekistonda yo'lga qo'yish bo'yicha kelishuvlarga erishdik. Prezidentimiz fermerlar dala chetidagi yerlardan unumi foydalanishni tavsiya etib kelyapti. Xitoyda ham dala chetlardagi energiya tejamlor issiqxonalar barpo qilishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilganini ko'rdik. Bularni O'zbekistonga tatbiq qilish bo'yicha ham ish olib boramiz.

Baliqchilik sohasi Xitoyda juda keng rivojlangan. Ayniqsa, baliq kasalliklariga qarshi kurash bo'yicha yangi texnologiyalar, umuman, hayvon kasalliklariga bo'lgan vaktsinaga talab o'zimizda yuqorilgicha qolyapti. Bu sohada xitoylik olimlar bilan keng qamrovli hamkorlik yo'lga qo'yildi. Zero, mamlakatimizda fermerlar daromadini oshirish uchun, eng avvalo, ishlab chiqarish tannarxini tushirish birinchi maqsad bo'lsa, ikkinchisi, Xitoy tajribasi orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va isrofgarchilikning oldini olishda agrologistika komplekslarini yaratishga qaratilgan. Shu jihatdan Xitoy tajribasi asosida agrologistika platformalari orqali mahsulotni sifatli saqlab, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha hamkorlik yanada kengayadi.

Ishonchim komilki, tashrif davomida barcha sohada o'zaro sheriklikni mustahkamlashga qaratilgan qator kelishuvlarga erishiladi va buning samarasi o'laroq yaqin kelajakda Xitoy bilan do'stona aloqalarimiz yanada rivojlanadi.

“Xalq so'zi”.

# QIZG'IN FIKR ALMASHINUVI VA HUQUQIY IMKONIYATLAR ASOSI

Fraksiya rahbari Aktam Haitovning aytishicha, mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotida investitsiyalarning ahamiyati beqiyos. Zero, iqtisodiyotda investitsiyalarni keng miqyosda jalb etishga erishish ko'plab sohalar, tarmoqlar hamda hududlarga yangi texnologiyalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib kelishiga, eng muhimi, tadbirkorlikning jadal rivojlanishiga ulkan poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama chog'ida fraksiya a'zolari amalga oshirilayotgan izchil islohotlar natijasida so'nggi olti yilda yurtimizga xorijdan qariyb 50 mlrd. dollar investitsiya kirganligini, birgina o'tgan yili yalpi ichki mahsulot ham, sanoat ham 6 foizga o'sganligini alohida ta'kidladilar.

Qizg'in fikr almashinuvidan so'ng bu borada partiya va uning fraksiyasi oldidagi muhim vazifalar belgilab olindi.

Yig'ilishda “Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni ikkilamchi ijara berish va ulardan samarali foydalanish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi qonun loyihasi ham ko'rib chiqildi.

Bugungi kunda respublikamizda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning dala chetlarida 34,5 ming gektar hamda kollektor-drenajlar atrofida 24,5 ming gektar yer maydonlari mavjud. Hisob-kitoblarga ko'ra ushbu yerlarni foydalanishga kiritish orqali 340 ming tonna qo'shimcha qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish imkoniyati mavjud. Bu, o'z navbatida, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash barobarida ehtiyojdan ortiqcha mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Lekin qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarining dala chetidagi hamda kollektor-drenajlar va sug'orish tarmoqlari atrofida maydonlardan foydalanishning huquqiy asosi yaratilmagan sababli ushbu yerlardan samarali foydalanilmayapti.

Yuqorida keltirilgan muammolardan hamda jamoatchilik fikridan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarining dala chetidagi hamda kollektor-drenajlar va sug'orish tarmoqlari atrofida maydonlardan foydalanishning huquqiy asosi yaratilmagan sababli ushbu yerlardan samarali foydalanilmayapti.

Muhokama va savol-javoblar davomida deputatlar ushbu qonun loyihasining zarurati va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratishdi. Undagi ayrim normalar bo'yicha bir qator savollar o'rtaga tashlandi.

Qonun tashabbuskorlari berilgan har bir savol yuzasidan batafsil tushuntirish berib o'tdi. Loyihani yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga

keltirish bo'yicha ilgari surilgan takliflar e'tiborga olinadigan bo'ldi va qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

## Tashabbusiz jamiyatda o'zgarish bo'lmaydi

O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida Prezidentimiz raisligida shu yil 16-yanvar kuni 2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasiga yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida e'tibor qaratilgan asosiy masalalar muhokama markazida bo'ldi.

Fraksiya rahbari Alisher Qodirov bu haqda fikr bildirar ekan, yig'ilishda ko'tarilgan masalalardan partiyaning har bir a'zosi tegishli xulosalar qilishi hamda joriy yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalarni saylovchilarga tushuntirishda faol bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

— Davlatimiz rahbari tomonidan o'tkazilgan yig'ilishda muhokama qilingan masalalar birgina iqtisodiy kompleksga taalluqli, deb qarash kerak emas. Chunki ushbu yig'ilishdan qarib qishqirish kerak bo'lgan xulosalar bor. Qaysi jamiyat tashabbus ko'rsatmasa, o'zini o'zi nazorat qilib isloh etmasa, o'zgarish bo'lmaydi, — dedi fraksiya rahbari.

Yig'ilishda, shuningdek, “O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga mahkumlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun loyihasi ham muhokama qilindi.

Qizg'in munozaralar davomida fraksiya a'zolari qonun loyihasining mazmun-mohiyati va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratdilar. Loyihadagi ayrim normalar bo'yicha o'z fikr-mulohazalari, takliflarini bildirdi.

Xususan, fraksiya a'zosi Farhod Ashmatov loyiha ahamiyati haqida to'xtalar ekan, uning qabul qilinishi yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan ko'zlangan maqsadlarga erishishga, inson huquq va erkinliklari himoyasining mutlaqo yangi mexanizmlari yaratilishiga xizmat qilishini qayd etib o'tdi.

## Insonparvarlik tamoyili asosida

O'zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida “O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga mahkumlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun loyihasi muhokama qilindi.



Aytilganidek, mazkur qonun loyihasi Prezidentimizning 2023-yil 8-maydagi “Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoniga asosan ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra Jinoyat-ijroiya kodeksiga ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar bilan insonparvarlik tamoyili asosida munosabatda bo'lish, ularning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishini ta'minlashga oid normalar kiritilmoqda.

Shuningdek, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligini va xalqaro shartnomalarga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lgan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etish tartibi joriy qilinmoqda.

Muhokama davomida fraksiya a'zolari ushbu loyiha ahamiyati haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Ta'kidlab o'tilganidek, ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi inson huquq va erkinliklari himoyasi, insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizligi kafolatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Qizg'in davom etgan bahs-munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Yig'ilishda kun tartibiga kiritilgan boshqa masalalar ham ko'rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

## Dori vositalari va tibbiy buyumlar narxlarida nazorat o'rnatilganmi?

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida yo'l harakati qoidalarini yanada takomillashtirish, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni ikkilamchi ijara berish va ulardan samarali foydalanish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi qonun loyihasi ham ko'rib chiqildi.

Unda pillachilik klasterlari hamda tutchilik va pillachilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklariga foydalanish maqsadida 10 gektardan kam bo'lmagan o'lchamda yer maydoni ajratilishi, shuningdek, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini dala chetlaridagi kollektor-drenaj va sug'orish tarmoqlarining atrofidagi yer maydonlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun o'n yilgacha bo'lgan muddatga ikkilamchi ijara berilishi mumkinligi belgilanmoqda.

Bundan tashqari, loyihada yerdan foydalanuvchilarning dala chetlari va kollektor-drenaj hamda sug'orish tarmoqlarining atrofidagi yer maydonlaridan, bog' hamda tokzor qator oralaridan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashga doir majburiyatlarini belgilash taklif etilyapti.

Fraksiya a'zolari mazkur qonun loyihasi pillachilik sohasini yanada rivojlantirish va pilla xomashyosini yetishtirishning ozuqa bazasini hamda dala chetlari, bog' va tokzor qator oralari hamda kollektor-drenaj atrofidagi foydalanilmay kelayotgan yer uchastkalarida mahsulotlar yetishtirishni kengaytirishga qaratilgan alohida qayd etib o'tdilar.

Qizg'in munozaralar yakunida qonun loyihasini takomillashtirishga qaratilgan bir qator taklif va tavsiyalar berildi hamda qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

Fraksiyalari yig'ilishlarida kun tartibidagi boshqa masalalar ham ko'rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

“Xalq so'zi”.

# O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qirq to'qqizinchi yalpi majlisi to'g'risida

## AXBOROT



Biroq qurilish, ishlab chiqarish va urbanizatsiya ko'lamlarining kengayishi atrof tabiiy muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishining ortishiga sabab bo'lmoqda.

Favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga boshqa real xavf yuzaga kelishining oldini olish uchun qonunlarda atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatuvchi obyektlarning faoliyatini maxsus vakolatli davlat organlarining qaroriga ko'ra cheklash yoki to'xtatib turish mumkinligi nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, qonunchilikda tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini cheklash yoki to'xtatib turish uchun asos bo'lgan noaniq ta'riflarning mavjudligi davlat organlarining diskretion vakolatlari kengligi bilan bog'liq korrupsiya holatlari paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur hujjat bilan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi hamda "Ekologik nazorat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga davlat organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini cheklash yoki to'xtatib turish to'g'risidagi qarorlarni, birinchi navbatda, aholining hayoti va sog'lig'iga xavf yuzaga kelishining oldini olish zaruratini hisobga olgan holda qabul qilish asoslarini aniqlashtiruvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Senatlar fikricha, ushbu qonun ekologik vaziyatni yaxshilashga, aholining hayotiga va sog'lig'iga xavf yuzaga kelishining oldini olishga, tadbirkorlik subyektlarini himoya qilishga, shuningdek, korrupsiya omillarini bartaraf etishga hamda vakolatli davlat organlarining mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shundan so'ng senatorlar tomonidan "O'zbekiston Respublikasi bilan Eron Islom Respublikasi o'rtasida mahkumlarni topshirish to'g'risidagi Shartnomani (Tehron, 2023-yil 18-iyun) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, Shartnomaning ratifikatsiya qilinishi jinoyat sodir etish natijasida ozodlikdan mahrum etilgan O'zbekiston va Eron fuqarolariga sud tomonidan tayinlangan jazoni o'z mamlakatida o'tashlari uchun huquqiy asos

va mahkumlarni topshirish sohasida ikki tomonlama hamkorlikni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Ta'kidlash joizki, Shartnoma 2023-yil 18-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Eronga rasmiy tashrifi davomida imzolangan edi.

Hujjatga ko'ra, mazkur Shartnomani ratifikatsiya qilish orqali uning kuchga kirishi mahkumlarni topshirish sohasidagi normativ-huquqiy bazani shakllantirib, ikki davlat vakolatli organlarining ushbu sohada o'zaro hamkorlik samaradorligini oshiradi.

Muhokama chog'ida senatorlar mahkumlarga jazoni o'z yurtda o'tashi ularga yaqin qarindoshlari bilan muntazam ko'rish turish imkonini berishini, bu esa o'z navbatida, oilaviy munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishini, shuningdek, mahkumlarning ijtimoiy hayotga moslashishiga yordam berishini alohida qayd etildi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shuningdek, yalpi majlisda "O'zbekiston Respublikasi bilan Vietnam Sotsialistik Respublikasi o'rtasida jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi Shartnomani (Xanoy, 2022-yil 14-noyabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, qonunda jinoyat ishlari tekshirilishi va boshqa protsessual harakatlar olib borilishi munosabati bilan yuridik yordam ko'rsatishning asoslari va shartlari nazarda tutilmoqda.

Xususan, so'rovlarning shakli va mazmuni, yordam ko'rsatishni rad etish yoki kechiktirish asoslari, so'rovlarni bajarish, himoya choralarini, xavfsizlik kafolatlari, shuningdek, jinoyat ta'qibni davom ettirish uchun o'tkazish kabi muhim masalalar bo'yicha qoidalari belgilanmoqda.

Senatlar fikricha, ushbu qonun ekologik vaziyatni yaxshilashga, aholining hayotiga va sog'lig'iga xavf yuzaga kelishining oldini olishga, tadbirkorlik subyektlarini himoya qilishga, shuningdek, korrupsiya omillarini bartaraf etishga hamda vakolatli davlat organlarining mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shundan so'ng senatorlar tomonidan "O'zbekiston Respublikasi bilan Eron Islom Respublikasi o'rtasida mahkumlarni topshirish to'g'risidagi Shartnomani (Tehron, 2023-yil 18-iyun) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, Shartnomaning ratifikatsiya qilinishi jinoyat sodir etish natijasida ozodlikdan mahrum etilgan O'zbekiston va Eron fuqarolariga sud tomonidan tayinlangan jazoni o'z mamlakatida o'tashlari uchun huquqiy asos

va mahkumlarni topshirish sohasida ikki tomonlama hamkorlikni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Ta'kidlash joizki, Shartnoma 2023-yil 18-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Eronga rasmiy tashrifi davomida imzolangan edi.

Hujjatga ko'ra, mazkur Shartnomani ratifikatsiya qilish orqali uning kuchga kirishi mahkumlarni topshirish sohasidagi normativ-huquqiy bazani shakllantirib, ikki davlat vakolatli organlarining ushbu sohada o'zaro hamkorlik samaradorligini oshiradi.

jinoyat ishlarni tergov qilish va sudda ko'rishda samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama yakunida senatorlar tomonidan qonun ma'qullandi.

Senatning qirq to'qqizinchi yalpi majlisida O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida navbatdagi milliy ma'ruza ko'rib chiqildi.

Ushbu milliy ma'ruza Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan taqdim etilgan ikkinchi ma'ruza hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori tomonidan taqdim etilgan ma'ruzada mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida 2022-yilda amalga oshirilgan ishlarga batafsil o'xtalib o'tildi.

Xususan, mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasini takomillashtirish, huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish maqsadida sohaga taalluqli 13 ta, shuningdek, iqtisodiy-ijtimoiy sohalaridagi islohotlarni amalga oshirish doirasida korrupsiya omillarini hisqartirishga qaratilgan 24 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Buning natijasida davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash hamda ochiqlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksi joriy etilgan.

Shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish bo'yicha "E-Antikorrupsiya" loyihasi ishga tushirilgan. Davlat hokimiyati va boshqaruv organi faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Mazkur preventiv mexanizmlar orqali davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi mas'uliyati va javobgarligi kuchaytirilib, jamoatchilik oldidagi hisobdorligi oshirildi.

Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2022-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi doirasida korrupsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus dasturiy ta'minot, shuningdek, "1253" qisqa raqamli Call-markaz faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish sifati

yaxshilanib, korrupsiyani yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan ortiqcha tartib-taomillar qisqartirilgan hamda elektron shaklda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari soni oshirilgan.

Xususan, 73 turdagi hujjat va ma'lumotlarni aholidan so'rab olish bekor qilinib, taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlar soni 95 tagacha (43 foiz) qisqartirilgan hamda 6 ta litsenziya va ruxsatnomada belgilangan 17 ta talab va shart bekor qilingan.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan kapital qurilish, oliy ta'lim, sog'liqni saqlash va davlat xaridlarini sohasida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritalari" tasdiqlanib, ijrosi ta'minlangan.

Shu bilan birga, senatorlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ayrim muammolar saqlanib qolayotganligi qayd etildi.

Davlat idoralari va tashkilotlarda keng qamrovli preventiv chora-tadbirlar o'tkazilishiga qaramay korrupsiya holatlari hamon uchramoqda.

Xususan, davlat xaridlari bilan bog'liq budjet mablag'lari talon-toroj qilinishi, subsidiyalari ajratish jarayonlaridagi noqonuniy harakatlar, nazorat organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatining noqonuniy tekshiruv kabi holatlarni qayd etish mumkin.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash natijalariga ko'ra davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy davlat hokimiyati organlarida 20 tashinng faoliyati "qoniqsiz" baholangan bo'lsa, Ochiqlik indeksi bo'yicha 27 ta davlat organi va tashkilotning ochiqlikni ta'minlash faoliyati past samaradorlikni qayd etgan.

Milliy ma'ruzani eshitish davomida senatorlar korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid qonunchilikni yanada takomillashtirishga oid takliflarni ham muhokama qildilar.

Savol-javob va muhokamalardan so'ng Senatning tegishli qarori qabul qilindi.

Bundan tashqari, Senatning mazkur yalpi majlisida O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vazirining irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axboroti eshitildi.

Ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023-yillarga mo'ljallangan strategiyasi ijrosi doirasida qator natijalarga erishilgan.

Xususan, o'tgan uch yil davomida suv xo'jaligi obyektlarida 9 mingga yaqin "aqlli suv", 6 mingdan ortiq "dayver" quymalari o'rnatilib, 58 ta yirik suv xo'jaligi obyektlarini boshqaruv jarayonlari to'liq avtomatlashtirilgan hamda 1,5 mingta nasos stansiyasida suv miqdorini onlayn monitoring qiluvchi quyma o'rnatilgan.

2023-yilda 297 kilometr kanal, 41 kilometr lotok, 11 ta gidrotexnika inshooti, 2 ta ko'priq, 56 ta sug'orish qudug'i rekonstruksiya qilinib, qirg'oqlarni himoyalash ishleri bajarilgan. Melioratsiya obyektlarini tizimli ta'mirlash va tiklash ishleri bo'yicha 316 milliard so'm

o'zlashtirilib (limitga nisbatan 94 foiz), 11 ming kilometr kollektor-drenaj tarmoqlari ta'mirlangan.

Shu bilan birga, muhokama jarayonida senatorlar tomonidan sohada ayrim kamchilik va muammolar mavjudligi ta'kidlandi.

Jumladan, Suv xo'jaligi vazirligi balansidagi suv xo'jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida xususiy sektorga berish ishleri yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Strategiya doirasida Sirdaryo viloyatida 3 ta, Toshkent viloyatida 2 ta, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarida 1 tadan yirik gidrouzlet va irrigatsiya tizimini raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirish ishleri bajarilmagan.

Vazirlik tizimidagi meliorativ ekspeditsiyalar sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini ekspres baholash imkonini beruvchi zamonaviy texnikalar, tezkor ko'chma mobil laboratoriya va o'lchov vositalari bilan yetarli darajada ta'minlanmagan.

Sug'orish obyektlariga qurilmalarni sifatsiz o'rnatish va ulardan to'g'ri foydalanilmaslik oqibatida birgina Surxondaryo viloyatida markaziy bazaga integratsiya qilingan 56 ta quyma nasoz holatga kelib qolgan hamda 2021-yil sentabrdan buyon markaziy bazaga ma'lumot uzatmagan.

Muhokamalar jarayonida senatorlar tomonidan sohadagi kamchilik va muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator takliflar bildirildi.

Meliorativ ekspeditsiyalarning moddiy-texnika bazasini zamonaviy texnikalar, tezkor ko'chma mobil laboratoriya va o'lchov vositalari bilan ta'minlash, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini kengaytirilgan tartibda joriy qilishni davom ettirish maqsadida joylardagi rahbar va xodimlarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish shular jumlasidan.

Shuningdek, senatorlar suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish ishlarini samarali tashkil etish hamda har bir hududda ulardan to'g'ri foydalanish bo'yicha yetuk mutaxassislarni jalb qilgan holda ko'rgazmalik seminarlar o'tkazish hamda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilishning manzilli ro'yxatini shakllantirish, ularni to'g'ri joriy etish va samarali ishlatish, mablag'larni maqsadli o'zlashtirish borasidagi ishlarining natijadorligini oshirish zarurligiga e'tibor qaratildi.

Muhokama yakunida Senatning tegishli qarori qabul qilindi.

Shundan so'ng yalpi majlisda yaylovlarni degradatsiyasining oziq-ovqat xavfsizligiga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga hamda atrof-muhitga salbiy ta'siri yuzasidan Hukumatga parlament so'rovini yuborish masalasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, yaylovlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, mintaqamizda ekologik muvozanatni saqlash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, chorvachilikni rivojlantirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilashda asosiy tabiiy manbalardan biri hisoblanadi.

Shu sababli yaylovlarning tabiiy sharoiti, konturlari, tuprog'i, ulardagi

o'simliklar xilmaxilligi, miqdori va suv bilan ta'minlanish darajasini yaxshilash talab etilmoqda.

Bugungi kunda 4,2 million gektar yaylovda geobotanik tadqiqotlar o'tkazilib, degradatsiyaga uchragan maydonlarning xaritalari tayyorlangan hamda degradatsiyaga uchragan 420 ming gektar yaylovni qayta tiklash va yaxshilash bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Suv bilan ta'minlanmagan 144 ming gektar yaylovda chorva mollari boqish imkoniyati yaratilgan. 2022-2023-yillarda shaxtali va tik quduqlar qazish, nasos stansiyalarini yangidan qurish hamda rekonstruksiya qilishga 40 milliard so'm miqdorida subsidiya mablag'lari ajratilgan.

Senatorlar olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda, yaylov yerlaridan samarali foydalanish, ularni nazorat qilish va degradatsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ayrim hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar dolzarbligicha qolayotganligini ta'kidladi.

Jumladan, respublikaning 21 million gektar hududini (umumiy yer maydonining 47 foizini) egallagan yaylovlarning 50 foizidan ortig'i turli darajada inqirozga uchraganligi, 11 million gektar yaylovning tabiiy ravishda yem-xashak hosil qilish salohiyati pasayib, yaroqsiz holatga kelib qolganligi ta'kidlandi.

Yaylovlarda chorva mollari almashlab boqish tizimi yetarli darajada joriy etilmaganligi va chorva mollari sonining keskin ortganligi bois yaylov yerlari katta bosim ostida qolgan. Buning oqibatida ozuqabop yem-xashak o'simlik turlari siyraklashib, yo'qolib ketish darajasiga yetganligi qayd etildi.

Ta'kidlanganidek, yaylovlardagi o'simliklar qoplamining hozirgi holati va degradatsiya jarayonlarini, yaylovlarning xo'jalik imkoniyatlarini o'rganish va shu asosda yaylovlardan oqilona foydalanish tizimini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgani.

Sohada mutaxassislar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yilmaganligi bois kadrlar yetishmovchiligi yuzaga kelgan.

Chol' va yarimchol' hududlarida ihot daraxtzorlarini barpo etish, inqirozga uchragan yaylov maydonlarini qayta tiklash ishleri amalga oshirilganligi tufayli shamol ta'sirida tuproq eroziyasi kuchayib, chang-to'zonlarning hosil bo'lish jadaligini ortib bormoqda.

Muhokama yakunida ushbu masalalarga oydinlik kiritish maqsadida Hukumatga parlament so'rovini yuborish to'g'risida Senatning qarori qabul qilindi.

Yalpi majlisda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarorlarini tasdiqlash to'g'risidagi masala ham ko'rib chiqildi.

Yalpi majlisda senatorlar tomonidan jamiyat hayotining barcha sohosi huquqiy asoslarini mustahkamlashga va mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar samaradorligini ko'tarishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 15 ta masala, shu jumladan, 10 ta qonun muhokama qilindi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qirq to'qqizinchi yalpi majlisi yakunlandi.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Axborot xizmati.**

## MASALALAR ISLOHOTLAR BOSQICHIDAGI AHAMIYATI NUQTAI NAZARIDAN TAHLILDAN O'TKAZILDI

Oliy Majlis Senati qirq to'qqizinchi yalpi majlisining ikkinchi kunida ham qator dolzarb masalalar ko'rib chiqildi. Ya'ni ular yuritimizda olib borilayotgan islohotlar jarayonidagi ahamiyati nuqtayi nazaridan chuqur tahlildan o'tkazildi.

Ushbu masalalarning ayrimlari xususida senatorlar o'zlarining fikr-mulohazalarini bayon etdi.

### Munosabat

#### Ekologik vaziyat yaxshilanadi

Botir MATMURATOV, Oliy Majlis Senatining Orolbo'y mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari:

Sir emas, bugungi kunga kelib butun dunyoda global iqlim o'zgarishi kuzatilayotgani. Afsuski, uning salbiy oqibatlari bizni ham chetlab o'tayotgani yo'q. Shulardan kelib chiqib, O'zbekistonda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya holatini va ekologik vaziyatni yaxshilash hamda tadbirkorlik subyektlari uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Senatorlar tomonidan ma'qullangan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun bu boradagi sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi bo'ldi, desak, ayni haqiqat.

Keyingi yillarda qurilish, ishlab chiqarish va urbanizatsiya ko'lami ortishi hisobiga tabiiy muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishi sezilarli darajada ko'paydi. Bu mavjud qonunchilikni

qayta ko'rib chiqish va uni zamon talablariga moslashtirish zaruratini keltirib chiqardi. So'z yuritilayotgan huquqiy hujjat bilan bir qator qonunlarga davlat organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini cheklash yoki to'xtatib turish to'g'risidagi qarorlarni, avvalo, aholining hayoti va sog'lig'iga xavf yuzaga kelishining oldini olish zaruratini hisobga olgan holda qabul qilish asoslarini aniqlashtiruvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Ishonamizki, bu ekologik vaziyatni yaxshilash, aholi hayoti va sog'lig'iga xavf yuzaga kelishining oldini olish, tadbirkorlik subyektlari himoyasi, shuningdek, korrupsiya omillarini bartaraf etish hamda vakolatli davlat organlarining mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

#### Ikki mamlakat huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati samaradorligini oshiradi

Ravshanbek ALIMOV, Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi:

— Oxirgi yillarda yuritimizda amalga



Akmal MUHAMMADOV olgan suratlari.

oshirilayotgan ochiqlik siyosati tufayli xorijiy davlatlar bilan aloqalarimiz yuksak darajaga ko'tarildi. Buni dunyoning turli mintaqalaridagi davlatlar bilan barcha sohada hamkorligimiz tobora izchillik kasb etib borayotgani, eng muhimi, salmoqli yutuq va natijalar qo'lga kiritilayotgani misolida ham ko'rish mumkin.

Yalpi majlisda ma'qullangan "O'zbekiston Respublikasi bilan Vietnam Sotsialistik Respublikasi o'rtasida jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi Shartnomani (Xanoy, 2022-yil 14-noyabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun ham shu maqsadga yo'naltirilgan bilan e'tiborga molik.

Qonunda jinoyat ishlari tekshirilishi va boshqa protsessual harakatlar olib borilishi munosabati bilan yuridik yordam ko'rsatishning asoslari va

shartlari nazarda tutilayotganligini ta'kidlash zarur. Ya'ni unda so'rovlarni shakli va mazmuni, yordam ko'rsatishni rad etish yoki kechiktirish asoslari, so'rovlarni bajarish, himoya choralarini, xavfsizlik kafolatlari hamda jinoyat ta'qibni davom ettirish uchun o'tkazish kabi masalalarga doir qoidalar belgilanayotir.

Aytish joizki, ushbu Shartnoma ratifikatsiya qilinishi jinoyat ishlari bo'yicha tekshirish va sud muhokamasida ikki mamlakat huquqni muhofaza etuvchi organlari faoliyati samaradorligini oshirishga hamda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayni chog'da ikki davlat huquqni muhofaza etuvchi organlarining jinoyat ishlarini tergov qilish va sudda ko'rish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

#### Yaylovlarni degradatsiyadan asrash zarurati

Risqul SIDDIQOV, Oliy Majlis Senatining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:

Ma'lumki, O'zbekiston qishloq xo'jaligi uchun, xususan, chorvachilik uchun yaylovlarning o'rni beqiyos. Shu bois yaylovlarni asrab-avaylash va uni salbiy ta'sirlardan saqlash dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, ayni paytda kuzatilayotgan yaylovlarni degradatsiyasi sharoitida bu yanada muhim ahamiyat kasb etyotir.

Shundan kelib chiqib, bugungi kunda 4,2 mln. gektar yaylovda geobotanik tadqiqot o'tkazilib, degradatsiyaga uchragan maydonlarni xaritasi tayyorlangan hamda degradatsiyaga uchragan 420 ming gektar yaylovni qayta tiklash va yaxshilash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar olib borilayotgani diqqatga sazovor. Yana bir qator ishlar ro'yobga chiqarilgan. Lekin shu sa'y-harakatlarga qaramay ayrim muammolar hali-hamon saqlanib qolmoqda. Masalan, jami yaylovlarning 50 foizidan ortig'i turli darajada inqirozga uchragan, 11 mln. gektar yaylov yaroqsiz holatga kelib qolgan.

Qolaversa, chorva mollari almashlab boqish tizimi yetarlicha joriy etilmagan hamda chorva soni keskin ortgan ham muammoli chuqurlashtirib yubormoqda. Ya'ni ozuqabop o'simlik turlari siyraklashib, yo'qolib ketish darajasiga kelib qolgan.

Shularni inobatga olib, yalpi majlisda yaylovlarni degradatsiyasining oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va atrof-muhitga salbiy ta'siri yuzasidan Hukumatga parlament so'rovini yuborish masalasi ko'ridi hamda Oliy Majlis Senatining tegishli qarori qabul qilindi.


"Xalq so'zi".

# “MAMLAKAT USTUNI, DAVLAT TAYANCHI”

“... (Alisherning unvonlarini bunday deb yozar edilar: “Hidoyat sohibi, sharaf va hurmatning oliy nuqtasi, din va davlat arboblarning sarasi, yurt va millat peshvolarining quvvati, xayrli ishlarining tashabbuskori, xayru ehson muassasalariga ravnaq beruvchi, saltanat ustuni, podshohlarni qo'ldan yetaklovchi, sulton davlatining umidi va ishonchi, sultonning yaqin do'sti, haqiqat va din nizomi Amir Alisher”.

(Xondamirning “Ravzat us-safo” asaridan).

Bu yil 9-fevral kuni ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 583-yilligi keng nishonlanadi. Ushbu muborak sana bilan bog'liq madaniyat va ma'rifat tadbirlarining barchasi mantiqan bir-birini to'ldirib, el-yurtimiz ma'naviyatini yuksaltirishda ulkan ahamiyat kasb etishi tayin.



tasavvur qilish imkoniyati yaratilgan.

Shu ma'noda, yangi kitob tanilgan navoiyshunos olimning uzoq yillik izlanishlari hosilasi hisoblanadi. Ushbu asar, ta'bir joiz bo'lsa, muayyan mavzudagi chuqur ilmiy-ijodiy tadqiqot jarayonlarining o'ziga xos salmoqli sarhisobidir.

## Ikkinchi Sharq Renessansining buyuk namoyandasi

Ushbu kitobda, muallifning o'zi ham e'tirof etganidek, “Alisher Navoiyning tarjimai holi eng qadimi, ilk manbalarda berilgan ma'lumotlar asosida” yoritilgan. Bu ilmiy-tarixiy nuqtayi nazaridan juda muhim.

## Navoiy hayoti va faoliyatiga oid yangi asar

Alisher Navoiy ma'rifatparvar shaxs sifatida o'zi yashagan zamonda ham, keyingi davrlarda ham tarixiy manbalarda alohida qayd etilib, she'riy asarlarda keng ta'rif va tavsif qilingan. Besh asrdan ziyod muddat mobaynida buyuk shoirning hayot yo'li va ijodiy faoliyati haqida juda ko'p kitoblar yozilgan.

Hazrat Alisher Navoiy asarlari mag'ziga singdirilgan hayotiy falsafa zamirida odamiylik va bag'rikenglik, ezgulik va adolatparvarlik g'oyalari o'z mujassamini topgan. Yangi O'zbekistonni barpo etayotgan va uchinchi Renessans poydevorini tiklayotgan zamonoshlarimiz shunday ezgu fazilatlarining sohiblari bo'lishi farzu qardir. Nega deganda, O'zbekiston Prezidentining “Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak”, degan chorlovi aynan shuni taqozo etadi.

Birgina XX asrda yurimning o'zida Izzat Sulton, Vohid Zohidov, Oybek, Aziz Qayumov, Hamid Sulaymonov, Natan Mallayev, Suyima G'aniyeva kabi zabardast olimi adiblar Alisher Navoiy ijodiyotining turli qirralariga bag'ishlangan ilmiy, tarixiy va adabiy-badiiy asarlarini chop ettirgan. Yangi yuz yillikda — mamlakatimizda navoiyshunos olim va uchinchi Renessans poydevorini tiklayotgan zamonoshlarimiz shunday ezgu fazilatlarining sohiblari bo'lishi farzu qardir. Nega deganda, O'zbekiston Prezidentining “Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak”, degan chorlovi aynan shuni taqozo etadi.

Birgina XX asrda yurimning o'zida Izzat Sulton, Vohid Zohidov, Oybek, Aziz Qayumov, Hamid Sulaymonov, Natan Mallayev, Suyima G'aniyeva kabi zabardast olimi adiblar Alisher Navoiy ijodiyotining turli qirralariga bag'ishlangan ilmiy, tarixiy va adabiy-badiiy asarlarini chop ettirgan. Yangi yuz yillikda — mamlakatimizda navoiyshunos olim va uchinchi Renessans poydevorini tiklayotgan zamonoshlarimiz shunday ezgu fazilatlarining sohiblari bo'lishi farzu qardir. Nega deganda, O'zbekiston Prezidentining “Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak”, degan chorlovi aynan shuni taqozo etadi.

Yangi kitob qaysi jihatlari bilan boshqa asarlardan farq qiladi? Mazkur nashrning ilk varag'idagi muxtasar izoh (rezyume) da qayd etilganidek, asosiy farqli xususiyatlar shundaki:

**birinchidan**, Alisher Navoiy hayoti va faoliyati bilan bog'liq ilk qo'lyozma manbalar qayta ko'rib chiqilgan;

**ikkinchidan**, XX asrgacha bo'lgan davrda bitilgan ma'lumotlarning ilk manbalardan farqlanish darajasi aniqlangan;

**uchinchidan**, ulug' shoir va davlat arbobi hayotining ba'zi noma'lum tomonlari oydinlashtirilgan;

**to'rtinchidan**, bir qancha yangi axborotlarni taqdim etish orqali Navoiy hazratlarining hayoti tafsilotlarini to'liq

XV asrga kelib deyarli unutilayotgan janrlarini tiklashga alohida e'tibor berdi”.

Yana bir muhim jihati shundaki, Alisher Navoiy rahnamolik qilgan Hirot adabiy muhitining rivoji uchun sultonning o'zi katta sharoit va qulayliklar yaratib bergan. Shu tariqa buyuk mutafakkir nomi yetti iqlim fozillari va san'atkorlari homiysi sifatida dorvruq topgan.

Hazrat Navoiyning beminnat ezguliklari borasida juda ko'p tazkiranavislar, tarixchilar, shoirlar, olimlar o'z asarlarida shohidlik bildirgan. Buning isbotini ulg'ujodimizning zamondoshlari asarlarida, uning sha'niga hatto ko'plab xattot va kotiblar tomonidan bitilgan turli madhiyalarda ham uchratish mumkin.

## Turkiy adabiy til asoschisi

O'zbekiston Prezidenti bugungi murakkab va tahlilali hayot oldimizga qo'yayotgan vazifalardan kelib chiqib, ma'naviyat va ma'rifat sohasida qator dolzarb masalalarni hal etishga e'tiborni qaratib kelmog'da. Shu ustuvor vazifalardan biri o'zbek tilining davlat tili maqomini amalda kuchaytirishdir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ham o'zbek tilini o'qitish samarasini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Milliy sertifikatga ega bo'lgan O'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchilariga yangi o'quv yilidan boshlab 50 foiz ustama to'lanishi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, boshqa tillarda ta'lim olgan ham yurtlarimizni davlat tilini o'rganishga rag'batlantirish choralarini ko'rinishini rag'uladi. Boshqa tillarga ixtisoslashtirilgan maktablarda davlat tilini o'qitish soatlari ko'paytirilishi, o'zbek tili bo'yicha xalqaro fan olimpiadasi tashkil qilinishi ta'kidlandi.

Shu ma'noda, “Amir Alisher” kitobida buyuk ajdodimizning turkiy adabiy til asoschisi ekaniga oid qiziqarli ma'lumotlar taqdim etilganidek, xalqimiz ma'naviyat va madaniyati, ona tilimiz va adabiyotimiz homiysi bo'lgan Navoiy hazratlari — xalqimiz ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan yorqin siymolarimiz sirasiga kiradi. Alisher Navoiy ikkinchi Sharq Uyg'onish davrining yirik namoyandasi sifatida jahon sivilizatsiyasi tarixida alohida o'rin tutadi.

Binobarin, buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri, atqoli davlat va jamoat arbobi, ta'lim-tarbiya hamda ilm-fan, ma'naviyat va madaniyat, ona tilimiz va adabiyotimiz homiysi bo'lgan Navoiy hazratlari — xalqimiz ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan yorqin siymolarimiz sirasiga kiradi. Alisher Navoiy ikkinchi Sharq Uyg'onish davrining yirik namoyandasi sifatida jahon sivilizatsiyasi tarixida alohida o'rin tutadi.

Ulug' ajdodimizning adabiy merosi behad ulkan va serqirra bo'lib, birgina she'riy asarlarining o'zi 100 ming satrdan ortiqdir. Akademik Sh. Sirojiddinov ta'bir bilan aytganday, “Bunday shoir jahon adabiyotida sanoqli desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi”.

Navoiy bobomizning nafaqat shoir, balki adabiyotshunos maqomidagi tadqiqotlari ham o'ta muhim bo'lib, ayni yo'nalishdagi samarali faoliyati turkiy va fors-yadaviyotni rivojlantirishda ulkan ahamiyat kasb etdi. Biz talqin qilayotgan kitob muallifi ta'biri bilan aytganday, “U “Mezon ul-avzon” asarida aruz tizimini tartibga solgan bo'lsa, Sharq she'riyatining muammo, qasida kabi

Shu ma'noda, bugungi kunda xorijda va yurtimizda o'zbek tilini o'rganish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqishda ona tiliga muhabbat, uni ulug'lash, beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham ongu tafakkurimizga, yuragimizga, avvalo, Alisher Navoiy asarlari bilan kirib kelgani bizga nihoyatda qo'l keladi. Zotan, ulug' ajdodimiz o'zining o'zbek tili maqomini tiklashdek ezgu maqsadiga erishdi — butun mamlakatni yakqalam, ya'ni bir tili qildi.

Sevimli shoirimiz Abdulla Oripovning mashhur “O'zbekiston” qasidasida e'tirof etilganidek:

“Temur tig'i yetmagan joyni Qalam bilan oldi Alisher”.

Shunday qilib, Millat Sardori so'zlari bilan aytganda, “Ulug' shoir o'zining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasini va latofati bilan namoyon etib, Yuruzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o'rin egalladi”.

## Navoiyshunoslik: hali o'rganilmagan yoxud bahsli mavzular talqini

Mustaqillik yillarida navoiyshunoslik ham ko'zga ko'rinarli yutuqlarga erishdi. Mustabid tuzum davrida man etilgan mavzular, jumladan, ulug' shoir ijodidagi qur'oniy asoslar, so'fiyona dunyoqarash masalalarida bir qancha tadqiqotlar yaratildi.

Shu bilan birga, navoiyshunoslikda hali-hanuz atroflicha ko'rib chiqilmagan ayrim muammolar, qaltis va “nozik” sanalagan muayyan mavzular borligidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Akademik Sh. Sirojiddinov ayni shunday mavzulardan ayrimlarini ilmiy-tarixiy nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilgan.

Kitob muallifi bu murakkab izlanishlar jarayonida Navoiy bobomizning sha'n u shavkati, qadri va qimmatini, obro'-e'tibori zig'ircha ziyon ko'rmasligini qat'iy hisobga olgan. Shuning barobarida, har qanday bahsli masalalar turli birlamchi manbalarda asosida yoritilgan, bunda tarixiy haqiqat va ilmiy xolislik tamoyillariga izchil rioya etilganidek, qayd qilish kerak, deb hisoblaymiz.

Shuni ham aytish kerakki, navoiyshunos olimning ilgari e'lon qilingan mavzuga doir tadqiqotlarida, xususan, 2011-yil chop etilgan “Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili” nomli asarida navoiyshunoslikka shu kungacha ma'lum ma'lumotlarning asl holati o'rganilgan. Bunda qiyosiy tipologik-tekstologik tahlildan o'tkazish orqali XX asrgacha bo'lgan davr oraliqida yaratilgan manbalardagi dalillarning ilk ma'lumotlardan farq qilish darajasi aniqlanganidek, qayd qilish kerak, deb hisoblaymiz.

Misol uchun, akademik Sh. Sirojiddinov tarixiy manbalarni atroflicha o'rganish asnosida Navoiy hazratlarining bobosi Abu Sa'id Bek temuriydan Husayn Boyqaroga juda ham yaqin inson bo'lgan, degan xulosaga keladi. Bu o'rinda “Hatto taxminimizcha, ayni Abu Sa'id Boyqaro Mirzoga emikdosh-ko'kaldosh bo'lgan bo'lishi mumkin va shu jihatdan Boyqaro qayerda yashamasin, u bilan birga bo'lgan”, deb yozadi kitob muallifi.

Shu negizda navoiyshunos olim kutilmagan, lekin muayyan tarixiy va ilmiy-nazariy asosga ega bo'lgan shunday xulosaga keladi. Ya'ni Mir Alisher Amir Temurning to'rt o'g'lidani biri — Shohruh Mirzo hukmdorligi davrida isyonkorligi uchun qattiq jazolangan va nonko'flikda aylangan Husayn Boyqaroni tarixiy asarlarda oqlash va ayni chog'da uning yaqin safdoshi bo'lgan o'z bobosi bilan faxrlanishning iloji yo'qligini teran anglab yetgan.

Akademik Sh. Sirojiddinov asosli baho berganidek, Navoiy bobomiz temuriylar tarixiga soya tushimaslik tarafdori bo'lgan. Binobarin, kitobda: “Mir Alisherning Boyqaro xonadoni va o'z ota-bobolari ismlarini tilga olmay o'tishining sababi shu bilan izohlanishi mumkin”, deb yozilgan mantiqqa to'g'ri keladi.

Navoiyshunoslikda noaniq bo'lib kelgan yana bir chalkash mavzu: Alisher Navoiy Samarqandga surgun qilinganmi? Kitobda ushbu savol atrofidagi masalalarga daxldor bir qancha manbalarni o'rganish va yangicha negizda tahlil etish orqali eng maqbul javobni ilgari surish yo'lidan borilgan diqqatimizni tortdi.

Xususan, V. Bartold Mirzo Bobur so'zlariga tayanib, Alisher Navoiy Samarqandga Abu Sa'id tomonidan surgun etilgan, degan fikrni ma'qullagan. Bunda Mir Alisherning o'zi tahsil uchun borganligini aytgan bo'lsa-da, “U paytlarda tahsil uchun Hirotadan Samarqandga bormas edilar” degan mulohazasi bilan ushbu dalilni inkor etgan. Natijada aksariyat navoiyshunoslar V. Bartoldga tegishli “Navoiyning Hirotadan Samarqandga ketishi surgun sifatida qaralishi lozim”, degan bahstalab xulosaga tayangan va uni rivojlantirish yo'lidan borgan.

O'z navbatida, Ye. Bertels ham “Navoiy” monografiyasida buyuk shoirning Samarqandga borganligini surgun deb hisoblagan. U o'zining ushbu xulosasini “bu paytlarda Samarqand ilm-fan markazi emas edi”, degan fikri bilan izohlagan.

Akademik Sh. Sirojiddinov bu boradagi turli yondashuvlarni tanqidiy tahlil etar ekan, avvalo, Mirzo Boburning fikri noto'g'ri talqin qilinganiga e'tiborni qaragani ahamiyatli. Xususan, “Zahiriiddin Muhammad Bobur aslida “Abu Sa'id Navoiyni Samarqandga nega surgun qildi?” deb emas, balki “Bilmayman, qaysi gunohi uchun Hirotadan chiqarib yubordi?” degan mazmunda gapirgan”, deya qayd etgan olim.

Kitobda o'zbek olimining ayni masalaga o'z bahosi ham taqdim qilingan. Ya'ni akademik Sh. Sirojiddinov ta'kidlaganidek, “Navoiy o'zi e'tirof etganicha, Hirotani tark etishiga “chorasizlik, falokat, taqdir va xafagarchilik” sabab bo'lgan bo'lsa, bu uning o'ziga-gina ma'lum bo'lgan sabablarga ko'ra ro'y bergan. Navoiy Abu Sa'id Mirzo zamonida siyosat bilan shug'ullanmagan bir shoir edi”.

Bundan tashqari, Alisher Navoiyning Astrobodga hokim qilib yuborilishi sabablari haqida ham navoiyshunoslikda turli qarashlar mavjudligi ochiq-oshkora tan olingan. Zero, ulug' ajdodimizning Astrobodga jo'natilishiga hozirgi navoiyshunosligimiz surgun sifatida qarashi hech kimga sir emas.

Kitob muallifi ushbu muammoga ham haqiqatga imkon qadar yaqin fikrarni ilgari surgun. Xususan, u A. Semyonov singari bir qator navoiyshunos olimlar xulosalariga tayangan holda, “Astrobd Sulton Husaynning eng boy va muhim viloyati ekanligini, unda, asosan, shahzodalar yoki sultonning o'ta ishonchli kishilari hokimlik qilib kelganligi va Alisherning Astrobodga hokim etib tayinlanishini “uzoq viloyatga” faxriy surgun” sifatida tushunish mumkin emas”, deb hisoblaydi.

## Adolati davlat arbobi

Alisher Navoiy hayoti va faoliyatiga qiziqish o'z zamonasidan bugungi kunga qadar so'nmay kelmog'da, ayniqsa, keyingi yillarda tubdan kuchayib bormog'da. Tabiiyki, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot ilgirilgan sari inson tafakkuri muayyan voqea-hodisaga nisbatan turli qarashlarni namoyon etadi.

Bunday qarashlar, har bir davrda paydo bo'lgan g'oyaviy-estetik yo'nalishlar negizida tug'ilishini nazarda tutsak, tarixiy shaxslar faoliyati ana shu g'oyaviy-badiiy hodisani murakkab tafakkur mevasidir. Akademik Sh. Sirojiddinov qalamiga mansub yangi kitobning “Amir Alisher va saroy” deb nomlangan ikkinchi qismi to'raligicha Navoiy bobomizning 35 yildan ortiq saroy xizmatida bo'lgan davri tafsilotlariga bag'ishlanganini xuddi shu omil bilan izohlash joiz.

Temuriylar davlati tarixi haqida so'z borganida, Alisher Navoiy nomi mashhur davlat arbobi sifatida alohida tahlil olinishini faxr va iftixor bilan e'tirof etamiz. Bu e'tirofimizni sulton Husayn Boyqaro ul zotni “Mamlakat ustuni, davlat tayanchi”, deb ta'riflagani baralla tasdiqlaydi.

Shu ma'noda, o'zbek olimining fikricha, Alisher Navoiy nomi tarix zarvarqalarida mangu naqshlanishining sabablari quyidagi uchta asosga bog'liq:

**birinchi asos** — benazir, demak, tengsiz va o'xshashi yo'q iste'dodidan darak beruvchi asarlar yozgani;

**ikkinchi asos** — mashhur davlat arbobi bo'lgani;

**uchinchi asos** — uni ulug' pir maqomiga yuksaltirgan munosib xulq-atvor sohibi darajasiga yetganidir.

Aslida ham, Alisher Navoiy hamisha shariat qonun-qoidalarini va Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam sunnatiga muvofiq holda, davlat va xalq manfaatlarini ko'zlab ish tutgan. Har bir holatda zo'raonlikka uchragan mazlumlarning muammolarini adolat nuqtayi nazaridan hal qilgan.

Alisher Navoiy Amiri kabir — Bosh vazir sifatida uzoq yillar davlat boshqaruvining eng muhim va nozik bo'g'inlarida, sud-adliya, ichki ishlar, soliq tizimi, tashqi diplomatik aloqalar, ichki nizolar, chegara muammolari, umumxalq yig'inlari va tadbirlarda davlat bilan xalq manfaatlarini doim uyg'unlashtirgan va qat'iy himoya qilgan. O'z navbatida, kitob muallifi yozganidek, “Navoiydagi bag'rikenglik, adolatlilik, donolik, siyosatdonlik va fuqarolar g'amini ye'yish fazilatlarini Sultonga davlatni adolati boshqarishda yaqindan yordam bergan”.

Akademik Sh. Sirojiddinov ayni shu masalalar yuzasidan mutlaqo yangi, xalq iborasi bilan aytganday, teshga tegmagan fikrlarni ilgari surgani juda muhim. Uning ishonch bilan ta'kidlashicha, “Olimlarimizning tarixiy voqeelikdan ancha chetga chiqib ketishlariga, o'z fikrlarini aytishdan ko'ra bir-birlariga suyanib fikr yuritishlari sabab bo'lgan. Ikk navoiyshunoslarning sovet tuzumi mafkurasidan kelib chiqib, Navoiy “haqiqatni aytishdan qo'rqmagan shoir” bo'lgani uchun Sulton “uning zaharli so'zlaridan qutulish uchun badarg'a qildi” tarzidagi talqinlari haqiqatga to'g'ri kelmaydi”.

“Makorim ul-axloq” (“Go'zal xulqlar”) asariga ko'ra, Alisher Navoiy podshoga biror qaror yoki masala yuzasidan o'z fikrini himoya qilish maqsadida to'qqiz martagacha murojaat etish huquqiga ega bo'lgan. Lekin zamonosh navoiyshunos olim haqli ravishda aytganidek, “Alisher Navoiy Sultonga tobe kishi sifatida hech qachon haqiqatni baralla ayta olmagan, balki mavridi bilan tushuntirishga uringan”.

Akademik Sh. Sirojiddinov asosli ta'kidlaganidek, “Alisher Navoiy hayoti va faoliyati haqida maxsus yozilgan ikki muhim manba bizga yetib kelgan. Bu G'iyosiddin Xondamir va Zayniddin Vosifiy qalamiga mansub xotiralari to'plamidir”.

Xususan, Xondamir o'zining “Makorim ul-axloq” asarida hazrat Navoiyning ma'naviy qiyofasini to'la aks ettira olgan. Ulug' mutafakkirning tahsinga savoroz fazilatlarini haqida ta'xtaliganda, mashhur tarixnavis bir o'rinda Amir Alisherni “bolalikdan Aloh nazar solgan shaxs” deb ta'riflagan bo'lsa, boshqa bir sahifada valiyilarga xos siyratini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratgani kabi dalillar ham ayni fikrning haqqoniyligini isbotlaydi, nazarinizda.

Shu bilan birga, tanilgan navoiyshunos olim “Makorim ul-axloq” asari muallifining kamchiligini ham topib bera olgan. Gap shundaki, “muallif aniq ma'lumotlar berish imkoniyati bo'lfa turib, birinchidan, ko'p hollarda, voqea-hodisalarining sanasini zikr etmagan va ikkinchidan, Navoiy hayotini sanaviy izchillikda ochib bermagan”, deb yozadi akademik Sh. Sirojiddinov.

Ayni shu nuqtayi nazaridan, olimning “Amir Alisher” nomli kitobida Amir Nizomiddin Alisherning shaxsiyati va davlat arbobi sifatidagi faoliyati aniq xronologiya asosida yoritilgani tahsinga savoroz.

Ushbu kitob muallifning 2011-yilda nashr etilgan “Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili” monografiyasining mantiqiy davomidir. Chunki Navoiy hazratlariga bag'ishlangan yangi asarda oldingi kitobda tahlilga tortilmagan nodir tarixiy asarlar va tazkiralardagi ma'lumotlar atroflicha tahlil etilgani e'tibor va e'tirofga munosibdir.

**Akmal SIDOV,** akademik, yuridik fanlar doktori, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

**Xalq so'zi Narodnoe slovo**

**Bosh muharrir O'tkir RAHMAT**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15.736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. O'fset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yublab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

**TELEFONLAR:** Devonxon 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismoilov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:** 100066, Toshkent shahri, Islov Karimov ko'chasi, 55-uy. Nabvatchi muharrir R. Sherqulov. Musahhib Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxon manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.05 Topshirildi — 00.05 1 2 3 4 5 6